

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining

2024 yil "25" apreldagi
58-sonli buyrug'iga ilova

Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha uslubiy NIZOM

Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish bo'yicha Nizom (keyingi o'rinlarda – Nizom deb ataladi) aholi turmush darajasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini olish maqsadida uy xo'jaliklarida tanlanma usulda kuzatuvlarni elektron qurilma (planshet)lardan foydalangan holda (keyinchalik – tanlanma kuzatuv) o'tkazish va tashkil etish tartibini belgilaydi.

Uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuvni elektron qurilma (planshet)lar orqali o'tkazish uslubiyati Jahon Banki ekspertlari hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yevropa iqtisodiy komissiyasining (BMT YEIK) tavsiyalariga asoslangan.

Ushbu uslubiy Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-114-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, shuningdek, Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keying o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuv natijalari ijtimoiy jarayonlarning aholi turmush darajasiga ta'sirini o'rganish va aholi farovonligini oshirishga qaratilgan qo'shimcha choralarni ishlab chiqishda asos bo'ladi.

Tanlanma kuzatuv natijalaridan aholining turmush darajasi, ta'lim, atrof-muhit, sog'liqni saqlash, kambag'allik ko'rsatkichlarini, iste'mol narxlari indeksini hisoblashda, milliy hisoblar tizimida uy xo'jaliklari sektori hisoblarini tuzishda va boshqa statistika hisob-kitoblarida foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Xalqaro taqqoslash dasturidagi ishtiroki doirasida uy xo'jaliklari xarajatlarini aks ettirish uchun foydalaniladi.

MHT–2008 xalqaro standarti asosida aholi daromadlari va ularning tabaqalashuvi o'zaro chambarchas bog'langan, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya sifatida baholanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va demografik ko'rsatkichlar bilan o'zaro bog'liklikda aholi turmush darajasini to'laroq statistik tahlil qilishga imkon beruvchi statistik ko'rsatkichlar tizimi xalqaro standartlar va tamoyllar asosida ishlab chiqiladi.

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlarini shakllantirish uchun yangi "Maqsadlar bo'yicha shaxsiy iste'mol klassifikatsiyasi-2018"ga asosan tovar va xizmatlarning toifalari va guruhlar bo'yicha tasniflanadi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta'riflardan foydalaniladi:

uy xo'jaligi – ma'lum bir turar-joy manzilida birga yashovchi, daromadlari yoki mol-mulkini to'liq yoki qisman birlashtirgan hamda ayrim turdagi tovarlar va xizmatlarni (asosan uy-joy xizmatlari va oziq-ovqat mahsulotlarini) birgalikda iste'mol qiladigan shaxslar guruhi;

uy xo'jaligi kuzatuv savolnomasi – kuzatuv davomida uy xo'jaligi to'g'risida ma'lumot olish maqsadida aniq shakllantirilgan savollar ro'yxatidan iborat bo'lgan, belgilangan tartibda tasdiqlangan hujjat;

intervyuyer – kuzatuv jarayonida tanlovga tushgan uy xo'jaliklari a'zolari bilan savol-javob (intervyu) o'tkazadigan hududiy statistika boshqarmasi xodimi;

respondent – kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaligining intervyu savollariga javob beradigan a'zosi. Respondent uy xo'jaligining boshlig'i yoki ushbu uy xo'jaligi to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'lgan boshqa a'zosi bo'lishi mumkin;

uy xo'jaligining umumiy daromadlariga pul daromadlari va natura shaklidagi daromadlar kiradi hamda doimiy asosda, takrorlanuvchi xususiyatga ega bo'lgan, yillik yoki undan kam vaqt oralig'idagi davrda uy xo'jaligi yoki uning alohida a'zolariga tushadigan tushumlardan tarkib topadi;

uy xo'jaliklarining umumiy va iste'mol xarajatlari – iste'mol va noiste'mol xarajatlardan tarkib topadi. O'z navbatida, uy xo'jaligining iste'mol xarajatlari, iste'mol tovarlari va xizmatlarini xarid qilishga (ya'ni, oziq-ovqat mahsulotlari sotib olishga, uydan tashqarida ovqatlanishga, spirtli va spirtsiz ichimliklar, tamaki mahsulotlari, nooziq-ovqat mahsulotlar sotib olishga va pullik xizmatlarga) yo'naltirilgan xarajatlarni o'z ichiga oladi. Noiste'mol xarajatlarga soliqlar, yig'imlar, to'lovlar va iste'mol bilan bog'liq bo'lmagan boshqa turdagi xarajatlar kiradi;

uy xo'jaliklarida aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli – uy xo'jaligida iste'mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlari umumiy hajmining (umumiy ovqatlanishni hisobga olmagan holda) uy xo'jaligi a'zolari soniga nisbati hisoblanadi. Iste'mol qilingan oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy hajmiga sotib olingan va uy xo'jaligiga to'lovsiz kelib tushgan (shaxsiy yordamchi xo'jaligidan, sovg'aga) shaxsiy iste'mol uchun sarflangan oziq-ovqat mahsulotlari miqdori kiradi;

kambag'allik aholi iqtisodiy imkoniyatlarining hayot kechirish uchun zarur minimal ehtiyojlarini qondirishiga yetarli darajada bo'lmashligi;

minimal iste'mol xarajatlari— uy xo'jaliklarining real iste'mol qiymatlari va tarkibini o'rganish asosida ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun zarur bo'lgan oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlar hamda xizmatlar uchun minimal xarajatlarning hisoblangan qiymati.

2-bob. Uy xo'jaliklarida tanlanma kuzatuv o'tkazish tamoyillari

2. Uslubiy Nizom GSBPMning yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish bosqichlari doirasida jamlanma va tanlanmani shakllantirish, ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish, ma'lumotlardagi xatoliklarni tekshirish, jamlanma ma'lumotlarni hisob-kitob qilish va shakllantirishni yakunlash, dastlabki statistik materiallarni tayyorlash hamda shakllantirishni yakunlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

3. Uy xo'jaliklari kuzatuv O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida oshkora va ishonchli ma'lumotlarni olish maqsadida, tanlanma usulda o'tkaziladi.

4. Kuzatuvlar tanlab olingan uy xo'jaliklarining unda ixtiyoriylik tamoyili asosida ishtirok etishi orqali tashkil etiladi. Tanlovga tushgan uy xo'jaliklarida kuzatuv bir oy davomida o'tkaziladi va shundan so'ng boshqa uy xo'jaligiga almashtiriladi.

5. Kuzatuv uy xo'jaligi a'zolari bilan bevosita so'rov (intervyu) o'tkazishga asoslanadi.

Kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaligining intervyu savollariga javob beradigan a'zosi ya'ni respondentga O'zbekiston Respublikasida belgilangan bazaviy hisoblash miqdorining 50 % i miqdorida bir martalik pul mukofoti soliq va boshqa majburiy to'lovlarni chegirib qolgan holda taqdim etiladi.

6. Har bir uy xo'jaligida kuzatuv o'tkazish davrida quyidagi so'rov hujjatlarini to'ldirish nazarda tutiladi:

- a) yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnoma;
- b) uy xo'jaligi so'rovnomasi;
- d) ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuv so'rovnomasi;
- e) AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo'jaligi a'zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko'lamini so'rovnomasi.

7. Tanlanma kuzatuv to'plami uy xo'jaliklari bosh to'plamining bir qismini (0,2 %) tashkil etadi.

Bosh to'plam, O'zbekiston Respublikasida mavjud uy xo'jaliklarining umumiy sonidan iborat. Bosh to'plamga jamoaviy uy xo'jaliklari, ya'ni uzoq

muddatdan beri shifoxonada, qariyalar uchun internat-uylarda, maktab-internatlar va boshqa institutsional muassasalarda bo'lgan shaxslar, shuningdek, jazoni ijro etish muassasalarida jazo muddatini o'tayotganlar, yotoqxonalarda yashovchi talabalar va shunga o'xshashlar qo'shilmaydi.

8. Uy xo'jaliklarining tanlanma kuzatuv to'plamini shakllantirish ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda, har bir hudud bo'yicha alohida shahar va qishloq uchun tanlovning birlamchi birliklari (TBB) soni aniqlanadi. Tanlovning birlamchi birligi sifatida shahar qatlamlarida mahallalar, qishloq qatlamlarida – qishloq mahallalari va qishloqlaridan foydalaniladi.

9. Kuzatuvlarda tanlovning birlamchi birliklaridan yarim yil davomida foydalaniladi, shundan so'ng yangilari bilan to'liq almashtiriladi (100% li yarim yillik rotatsiya). Shu tarzda, bir yil davomida ikki marta TBB tanlovi amalga oshiriladi. Tanlanadigan TBB soni har yarim yil uchun 309 tani, bir yilda 618 ta TBBni tashkil etadi. Har bir hudud (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri) uchun shu kabi raqamlar mos ravishda o'rtacha 18 tadan 28 tagacha va yiliga 36 tadan 56 tagacha TBBni tashkil etadi.

TBB ro'yxatini shakllantirishda borish qiyin bo'lgan va borib bo'lmaydigan TBB ro'yxatga kiritilmaydi.

10. Har bir tanlab olinayotgan TBBning o'lchami rad javoblari va boshqa natijasiz qatnovlarni, shuningdek, undagi uy xo'jaliklarining ro'yxati yetarli darajada sifatli bo'lmaganligini hisobga olgan holda, kuzatuv o'tkaziladigan uy xo'jaliklari sonidan kam bo'lmasligi kerak.

Agar, birlamchi ro'yxatdagi biror-bir mahallaning o'lchami belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, u ushbu shahar/shaharcha yoki qishloq fuqarolar yig'ini hududidagi boshqa mahalla bilan birlashtirilishi kerak. Agar, birlashtirilgandan so'ng ham mahallalarning yig'ma miqdori avvalgidek belgilangan eng oz miqdordan kam bo'lsa, ularga yana bir mahalla qo'shiladi va h.k.

Shu tarzda, har biri, bir va undan ortiq mahallalardan tashkil topgan TBBning yakuniy ro'yxati shakllantiriladi. Tarkibli TBBning uy xo'jaliklari ro'yxati unga kiritilgan mahallalarning barcha uy xo'jaliklarini o'z ichiga oladi, TBB nomi esa, ularning nomlaridan iborat bo'ladi.

11. Ikkinchi bosqichda, TBB tanlovi o'tgandan keyin, joylarda kuzatuv ishlarini o'tkazishdan avval, barcha tanlab olingan mahallalar va qishloqlarda yashovchi uy xo'jaliklarining ro'yxati tuziladi va ulardan shahar va qishloq qatlamlari asosida hududlar bo'yicha oddiy tasodifiy tanlov amalga oshiriladi.

12. Hududlar bo'yicha uy xo'jaliklarini stratifikatsiyalashda (qatlamlarga ajratishda) har bir hudud bo'yicha tanlovning talab etiladigan eng oz o'lchovini va hududlar darajasida natijalarning talab etiladigan aniqlik darajasini ta'minlovchi nomutanosib usuldan (uy xo'jaliklari sonining kvadrat ildizi asosida) foydalaniladi, hisob-kitoblar quyidagi formuladan foydalangan holda amalga oshiriladi:

$$S_i = S \times (\sqrt{Q_i} / \sum_{j=1}^n \sqrt{Q_j})$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

S – tanlovning umumiy o'lchami;

Q_i – qatlamdagi uy xo'jaliklarining soni;

Q_j – barcha qatlamlar bo'yicha uy xo'jaliklarining umumiy soni.

13. Shahar va qishloq bo'yicha stratifikatsiyalash mos ravishda uy xo'jaliklari soniga asoslangan. Bunda, quyidagi formula yordamida aniqlanadigan mutanosib usuldan foydalaniladi:

shahar uy xo'jaliklari (S_{is}) uchun:

$$S_{is} = S_i \times (Q_u / Q_i)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

Q_u – i - hududning shahar joylaridagi uy xo'jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo'jaliklarining soni.

qishloq uy xo'jaliklari (S_{iu}) uchun:

$$S_{iu} = S_i \times (Q_{iu} / Q_i)$$

bunda, S_i – i - hududning tanlov o'lchami;

Q_{iu} – i - hududning qishloq joylaridagi uy xo'jaliklari soni;

Q_i – i - hududdagi uy xo'jaliklarining soni.

14. Hududlar va shahar/qishloq bo'yicha stratifikatsiyalash amalga oshirilgandan so'ng, yillik tanlovning kuzatuv 12 oyiga bo'linishi zarurati bo'lganligi sababli, tanlovni qatlamlar bo'yicha hisoblangan joylashtirishdan biroz farq qilgan holda o'zgartiriladi.

Masalan: Agar, TBBda bir oyda 3 ta uy xo'jaligi kuzatilsa, u holda bu TBBda yarim yil uchun 3×6 oy = 18 tadan kam bo'lmagan uy xo'jaligi bo'lishi kerak.

Har ikkinchi uy xo'jaligi tomonidan "rad javobi" yoki "uyda hech kim yo'q" javoblari kutilishi mumkinligini hisobga olgan holda, uy xo'jaliklari soni kamida $18 / 0,5 = 36$ taga ko'tariladi.

Uy xo'jaliklari ro'yxatlarining sifati yomonligi, ya'ni har o'ninchi manzil noaniq yoki noturar-joy sektoriga to'g'ri kelishi va h.k. holatlarni hisobga olib, TBBning eng oz o'lchami $36 / 0,9 = 40$ tagacha uy xo'jaligiga ko'paytiriladi.

15. Tanlangan uy xo'jaliklari ro'yxati, ro'yxat boshidan boshlab qismlab foydalaniladi. Kuzatuvning birinchi oyi uchun ushbu ro'yxatdagi uy xo'jaliklarining birinchi qismi, ikkinchi oy uchun – birinchi oyda foydalanilgan uy xo'jaliklarining oxirgisidan keyingi turuvchi birinchi uy xo'jaligidan boshlangan ro'yxatning ikkinchi qismi belgilanadi va h.k.

16. Joriy oy davomida kuzatuv o'tkazilishi mo'ljallangan uy xo'jaliklari ro'yxati joylarda kuzatuv ishlarini boshlashdan oldin intervyuerlarga beriladi. Ro'yxatlar bilan ishlash, qat'iy ravishda tanlovning teng ehtimollik tamoyillarini buzmaganda holda, rad javobi bergan uy xo'jaliklarini boshqalari bilan almashtirishni nazarda tutuvchi va tanlovning belgilangan o'lchamiga erishishni ta'minlovchi ketma-ketlik asosidagi qo'shimcha tanlov o'tkazish usuli qoidalari bo'yicha amalga oshiriladi.

3-bob. Kuzatuv dasturi

17. Kuzatuv dasturida ma'lumotlarni yig'ish bo'yicha bajariladigan quyidagi ish belgilangan:

Kuzatuv oyida uy xo'jaliklari bilan yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnoma, uy xo'jaligi so'rovnomasi, ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuv so'rovnomasi hamda AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo'jaligi a'zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko'lami so'rovnomasi bo'yicha so'rov o'tkaziladi.

18. Yakka tartibda o'tkaziladigan so'rovnoma bo'yicha so'rov o'tkazish dasturi uy xo'jaliklari a'zolarining demografik xususiyatlari, ko'chib kelgan va ko'chib ketgan shaxslar to'g'risida ma'lumot (migratsiya), ta'lim darajasi, sog'liq, bandlik, jamg'arma va kreditlar, ijtimoiy nafaqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan savollarni qamrab oladi.

19. Uy xo'jaligi so'rovnomasi bo'yicha so'rov o'tkazish dasturi uy xo'jaliklarining daromadlari, 7 kun ichida iste'mol qilingan va sotib olingan oziq-ovqat mahsulotlari va iste'mol qilingan mahsulotning manbalari (uy xo'jaligida ishlab chiqarilgan, sovg'aga olingan, beg'araz yordam, mehnat xaqi hisobiga olingan, zaxiradan olingan, almashtirishdan, qarzga va boshqa

manbalardan), oziq-ovqat xavfsizligi, uy xo'jaligi a'zolari tomonidan nooziq-ovqat mahsulotlarga qilingan xarajatlar, sotib olingan va iste'mol qilingan yoqilg'i turlari, xizmatlarga qilingan xarajatlar, uy-joy, kommunal xizmatlari, muqobil energiya manbalarining mavjudligi, uy xo'jaligining moddiy-ijtimoiy holatini baholash va uzoq muddat foydalaniladigan buyumlar bilan ta'minlanganligi, noiste'mol xarakterdagi xarajat va to'lovlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan savollarni qamrab oladi.

20. Ichki turizm va aholining jismoniy faolligi kuzatuv so'rovnomasining so'rov o'tkazish dasturi uy xo'jaligi tarkibi, uy xo'jaligi a'zolarining jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanishi va kuzatuv oyida uy xo'jaligi a'zolarining O'zbekiston Respublikasi hududi bo'ylab turistik safarlarni amalga oshirilishi, ushbu safarlar bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash uchun ko'zda tutilgan.

21. AKT vositalaridan foydalanish imkoniyatining mavjudligi va uy xo'jaligi a'zolarining AKT vositalaridan foydalanish ko'lamini so'rovnomasi bo'yicha so'rov o'tkazish dasturi uy xo'jaliklarida 10 yosh va undan katta yoshdagi a'zolarida AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati mavjudligi va ko'lamini to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan savollarni qamrab oladi.

4-bob. Tanlanma kuzatuv natijalarini qayta ishlash va alohida ko'rsatkichlarni hisoblash

22. Uy xo'jaliklarida kuzatuv o'tkazish natijalari bo'yicha har chorakda daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi umumlashtirilgan ma'lumotlar 1-ilovada keltirilgan tarkibga muvofiq shakllantiriladi.

Shuningdek, daromad darajasi bo'yicha aholining tabaqalanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirish maqsadida, har chorakda o'rtacha jon boshiga umumiy daromadlari darajasi bo'yicha aholining taqsimlanishi, fondlar koeffitsiyenti va Jini koeffitsiyentini hisoblash amalga oshiriladi (Jini koeffitsiyenti va fondlar koeffitsiyentini hisoblash namunalari 2-3 va 4-ilovalarda keltirilgan).

23. **O'rtacha jon boshiga umumiy daromadlari darajasi bo'yicha aholining taqsimlanishi** – moddiy farovonlik darajasi bo'yicha aholining tabaqalanishini ifoda etadi va aholi sonini (yoki ulushini) jon boshiga umumiy daromadlari darajasi bo'yicha berilgan $((X_{\max} - X_{\min})/n)$ oraliqlarda guruhlangan ko'rsatkichlarni o'zida aks ettiradi.

24. **Aholining detsil va kvintil guruhlari bo'yicha umumiy daromadlari jami hajmining taqsimlanishi** jon boshiga umumiy daromadlari bo'yicha o'sib borish ketma-ketligida taqsimlangan har bir 10 (20) foizli aholi guruhlariga to'g'ri kelgan umumiy daromadlari jami hajmining ulushi orqali ifodalanadi.

25. **Jini koeffitsiyenti (G)** alohida shaxslar yoki uy xo'jaliklari daromadlarining haqiqiy taqsimlanishini mutloq tenglikdan chetlanish darajasi (aholi daromadlarini taqsimlanishida tengsizlik darajasi)ni ifoda etadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$G = 1 - 2 \sum_{i=1}^n x_i \text{kum.} y_i + \sum_{i=1}^n x_i y_i$$

bunda, x_i – i - guruhdagi aholining ulushi;

y_i – i - guruhdagilarning daromadi ulushi;

$\text{kum.} y_i$ – barcha guruhlarning daromadlari ulushini yig'indisi.

Jini koeffitsiyenti (G) 0 dan (mutlaqo tenglik) 1 gacha (mutlaqo tengsizlik) oralig'ida o'lchanadi, ya'ni indeks 1 ga qanchalik yaqin bo'lsa, daromadlarning jamiyatda qutblanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

26. **Fondlar koeffitsiyenti (K_f)** yuqori darajada ta'minlangan 10 (20) foizli va eng kam ta'minlangan 10 (20) foizli aholi guruhlarining daromadlari umumiy (o'rtacha) qiymati o'rtasidagi farqlanishning mavjudligini belgilaydi:

$$K_f = S_{10(5)} / S_1$$

bunda, $S_{10(5)}$ – eng yuqori daromadli 10 (20) foiz aholiga to'g'ri kelgan daromad yig'indisi;

S_1 – eng kam daromadli 10 (20) foiz aholiga to'g'ri kelgan daromad yig'indisi.

27. **Asosiy daromad manbai bo'yicha aholining tabaqalanishi ishlovchi uy xo'jaligi boshliqlarining asosiy daromad manbaidan kelib chiqib amalga oshiriladi:**

yollanib ishlovchilar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar va mustaqil ravishda band bo'lgan boshqa shaxslar (hunarmandlar, erkin kasb egalari va b.);

mulkdan daromad oluvchilar;

transfert oluvchilar (pensiylar, nafaqalar, stipendiyalar);

boshqa manbalardan daromad oluvchilar.

28. **Uy xo'jaligi boshlig'ining jinsi bo'yicha daromadlarning bog'liqligi** ishlovchi uy xo'jaligi boshliqlarining yakka tartibdagi daromadlarini jinsiga bog'liq holda taqsimlanishini ifoda etadi:

ish haqi;

yakka tartibdagi ish yoki biznes asosida olingan daromad;

aksiya va boshqa qimmatli qog'ozlardan olingan dividendlar va foizlar;

pensiyalar, nafaqalar, stipendiyalar;
boshqa daromadlar.

29. Daromadlarning uy xo‘jaligi boshliqlarini ta’lim darajasiga bog‘liqligi ishlovchi uy xo‘jaligi boshliqlarining yakka tartibdagi daromadlarini ularning ta’lim darajasiga bog‘liqligini ifoda etadi:

boshlang‘ich va quyi;
to‘liqsiz o‘rta;
to‘liq o‘rta;
o‘rta maxsus kasb-hunar;
oliy va yuqori.

30. Chorak yakunlari bo‘yicha uy xo‘jaliklari kuzatuvlarining jami respublika bo‘yicha natijalari vakolatli hisoblanadi, hududlar bo‘yicha ma’lumot yil yakuni bo‘yicha vakolatli hisoblanadi.

5-bob. Yakuniy qoidalar

31. Mazkur Nizomni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari “Statistik ma’lumotlarni taqdim etishning universal modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo‘yicha namunaviy uslubiy qo‘llanma”ga muvofiq amalga oshirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. «Составление планов выборки для обследований домашних хозяйств практические рекомендации» Организации Объединенных Наций, Нью-Йорк 2010 год.
2. Система национальных счетов – 2008, Организация Объединенных Наций, Европейская комиссия, Организация экономического сотрудничества и развития, Международный валютный фонд и Всемирный банк, 2009 год.
3. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020-yil 30-noyabrdagi 44-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste’mol usulida hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”.
4. Руководство по стоимостной оценке неоплачиваемой трудовой деятельности по оказанию домашних услуг, Европейская экономическая комиссия Организации Объединенных Наций, Нью-Йорк и Женева, 2017 год.
5. Руководство по измерению бедности, Европейская экономическая комиссия Организации Объединенных Наций, Нью-Йорк и Женева, 2017 год.
6. Руководство по измерению доступа к ИКТ и их использования на уровне домашних хозяйств и отдельных лиц, Международный союз электросвязи (Издание 2020 года).

7. Международные рекомендации по статистике туризма, 2008 год Руководство по составлению, Организация Объединенных Наций Нью-Йорк, 2016 год.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Kadrlar malakasini oshirish va statistika tadqiqotlari instituti tayanch doktoranti (PhD) Mardonov Aminjon Amon o'g'lining 08.00.06 – “Ekonometrika va statistika” ixtisosligi bo'yicha “O'zbekiston Respublikasida aholi turmush darajasi ko'rsatkichlarini ekonometrik modellashtirish” mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi, 2024-yil

“Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha
nizom”ga
1-ilova

Uy xo‘jaliklarining daromadlari va xarajatlari tarkibi

Uy xo‘jaliklari umumiy daromadlari

Uy xo‘jaliklari pul daromadlari:

ish haqi, ta‘til puli va mukofot pullarini qo‘shgan holda;
tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad;
qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotishdan olingan tushumlar;
ijtimoiy to‘lovlar (pensiylar, stipendiyalar, nafaqalar va boshqa to‘lovlar);

foizlar, dividendlar va mulkdan olingan boshqa daromadlar;
ko‘chmas mulk sotishdan va ijaraga berishdan olingan daromadlar
boshqa pul tushumlari.

Natura shaklidagi tushumlar qiymati:

Oziq-ovqat mahsulotlari natura tushumlari qiymati.

Uy xo‘jaliklari xarajatlari

Uy xo‘jaliklarining iste‘mol xarajatlari:

oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar;
spirtli ichimliklar, tamaki mahsulotlari;
kiyim va poyabzal;
turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg‘i turlari;
uy-ro‘zg‘or asboblari, maishiy texnika va turar joylarga kundalik xizmat ko‘rsatish;

sog‘liqni saqlash;
transport;
axborot va aloqa;
dam olish, sport va madaniyat;
ta‘lim sohasidagi xizmatlar;
restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari; - sug‘urtalash va moliyaviy xizmatlar;

maishiy tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy himoya va turli tovarlar va xizmatlar.

Uy xo‘jaliklarining noiste‘mol xarajatlari:

solliqlar, badallar va boshqa majburiy to‘lovlar;

ko'chmas mulk sotib olishga xarajatlar;
tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun xarajatlar;
bank muassasalariga qo'yilmalar, aksiya va boshqa qimmatli
qog'ozlar sotib olish;
boshqa turdagi noiste'mol xarajatlar.

“Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha
nizom”ga
2-ilova

**Aholini kvintil (20 foizli) guruhlari bo‘yicha
Jini koeffitsiyentini hisoblash namunasi**

Kvintil guruhlari	Kvintil guruhlar-dagi aholi ulushi (x_i)	Aholi umumiy daromadlarining ulushi (y_i)	Aholi umumiy daromadlarining ulushini yig‘indisi ($kum\ y_i$)	$x_i^* kum\ y_i$	$x_i^* y_i$
1 kvintil	0,2	0,086	0,086	0,017	0,017
2 kvintil	0,2	0,131	0,217	0,043	0,026
3 kvintil	0,2	0,168	0,385	0,077	0,034
4 kvintil	0,2	0,220	0,605	0,121	0,044
5 kvintil	0,2	0,395	1,000	0,200	0,079
Σ	1,0	1,000	2,293	0,459	0,200

Keltirilgan ma’lumotlarga asosan, Jini koeffitsiyentini (G) hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$G = 1 - 2 \sum_{i=1}^n x_i kum.y_i + \sum_{i=1}^n x_i y_i = 1 - 2 \times 0,459 + 0,200 = 0,283$$

Hosil bo‘lgan **0,283** koeffitsiyenti 0 ga yaqin bo‘lgani uchun, bu aholi daromadlari taqsimlanishida tenglik darajasi nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

“Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha
nizom”ga
3-ilova

**Aholini kvintil (20 foizli) guruhleri bo‘yicha
fondlar koeffitsiyentini hisoblash namunasi**

Kvintil guruhleri	Kvintil guruhlardagi aholi ulushi	Aholi umumiy daromadlarining ulushi (S)
1 kvintil	0,2	0,086
2 kvintil	0,2	0,131
3 kvintil	0,2	0,168
4 kvintil	0,2	0,220
5 kvintil	0,2	0,395

Keltirilgan ma’lumotlarga asosan, fondlar koeffitsiyentini (K_f) hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$K_f = S_5 / S_1 = 0,395 / 0,086 = 4,6.$$

Hosil bo‘lgan koeffitsiyent, yuqori darajada ta’minlangan 20 foizli va eng kam ta’minlangan 20 foizli aholi guruhlarining umumiy daromadlari jami qiymati o‘rtasidagi farqlanish 4,6 marta ekanligini ko‘rsatadi.

“Uy xo‘jaliklarida kuzatuv o‘tkazish bo‘yicha
nizom”ga
4-ilova

**Aholini detsil (10 foizli) guruhlari bo‘yicha
fondlar koeffitsiyentini hisoblash namunasi**

Detsil guruhlari	Detsil guruhlardagi aholi ulushi	Aholi umumiy daromadlarining ulushi (S)
1 detsil	0,1	0,003
2 detsil	0,1	0,051
3 detsil	0,1	0,061
4 detsil	0,1	0,070
5 detsil	0,1	0,079
6 detsil	0,1	0,089
7 detsil	0,1	0,102
8 detsil	0,1	0,119
9 detsil	0,1	0,147
10 detsil	0,1	0,248

Keltirilgan ma’lumotlarga asosan, fondlar koeffitsiyentini (K_f) hisoblash quyidagi formula bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$K_f = S_{10}/S_1 = 0,248/0,003 = 7,0.$$

Hosil bo‘lgan koeffitsiyent, yuqori darajada ta’minlangan 10 foizli va eng kam ta’minlangan 10 foizli aholi guruhlarining umumiy daromadlari jami qiymati o‘rtasidagi farqlanish 7,0 marta ekanligini ko‘rsatadi.